

GAP BO'LAKLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Sattorova Nafosat Qobil qizi

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1 – bosqich 103– guruhi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15491730>

Annotasiya. Gap tarkibidagi o'zaro tobe bog'lanishda bo'lgan so'zlardan bittasi tobe bo'lak ikkinchisi hokim bo'lak vazifasini bajaradi. Tobe bo'lak hokim bo'lakka bog'lanib hokim bo'lak talab etgan sintaktik vazifada keladi. Ana shu vazifa gap bo'lagi nomi bilan yuritiladi.

Gapda so'zlar o'zaro grammatik munosabatga kirishib gap bo'laklarini hosil qiadi. Gap bo'laklari vazifasini mustaqil so'zlarga bajaradi. Har bir bo'lagi boshqa gap bo'laklari bilan bo'lgan grammatik munosabatlarga ko'ra belgilanadi, ya'ni har bir gap bo'lagi o'zi munosabatga kirishgan so'z bilan ma'lum sintaktik aloqada bo'ladi. Quyidagilar gap bo'laklari turlarini belgilashda eng asosiy xususiyat bo'la olmaydi: 1) so'zlarning qaysi turga mansubligi; 2) so'zlarning qaysi so'roqqa javob bo'lishi; 3) so'zlarning gap ichida joylashish tartibi; 4) so'zlarning qanday qo'shimchalar olishi.

Kalit so'zlar: Gap bo'laklari, so'z, to'ldiruvchi, ega, kesim.

Abstract. Among the words in a subordinate relationship in a sentence, one acts as a subordinate clause and the other as a dominant clause. The subordinate clause is connected to the dominant clause and performs the syntactic function required by the dominant clause. This function is called a part of speech. In a sentence, words enter into a grammatical relationship with each other and form parts of speech. Only independent words perform the function of parts of speech. Each part is determined by its grammatical relationship with other parts of speech, that is, each part of speech has a certain syntactic relationship with the word with which it enters into a relationship. The following cannot be the most basic characteristics in determining the types of parts of speech: 1) the type of words; 2) the answer to which question the words are; 3) the order of the words in the sentence; 4) what suffixes words take.

Keywords: Parts of speech, word, complement, possessive, participle.

Аннотация. Среди слов в предложении, находящихся в подчиненных отношениях, одно из них выступает в роли придаточного предложения, а другое — в роли главенствующего. Придаточное предложение связано с главенствующим предложением и выполняет синтаксическую функцию, требуемую главенствующим предложением. Эта функция называется частью речи. В речи слова вступают в грамматические отношения друг с другом, образуя части речи. Функцию частей речи выполняют только самостоятельные слова. Каждая часть речи определяется ее грамматической связью с другими частями речи, то есть каждая часть речи имеет определенную синтаксическую связь со словом, с которым она вступает в связь. Следующие признаки не могут быть важнейшими при определении типов частей речи: 1) тип слов; 2) на какой вопрос отвечают слова; 3) порядок слов в предложении; 4) какие суффиксы принимают слова.

Ключевые слова: Части речи, слово, дополнение, притяжательный падеж, причастие.

KIRISH.

Har bir gap bo'lagi boshqa gap bo'laklari bilan bo'lgan grammatik munosabatiga ko'ra belgilanadi, ya'ni har bir gap bo'lagi o'zi munosabatga kirishgan so'z bilan ma'lum sintaktik aloqada bo'ladi, gap bo'laklarini belgilashda asosiy xususiyat ular orasidagi sintaktik munosabatdir. Masalan, Abituriyentlar so'zini olaylik. Bu so'z ot so'z turkumiga mansub, -lar ko'plik qo'shimchasini olib kimlar? so'rog'iga javob bo'lmoqda, lekin bu gapda turlicha sintaktik munosabtda bo'ladi. Masalan, Eng ko'p kitob varaqlaydiganlar abituriyentlardir (kesim). Abituriyentlar o'qishga kirish uchun dastavval maqsadli reja tuzib olishlari kerak (ega). Yildan yilga abituriyentlarning soni ko'payib bormoqda (qaratqich aniqlovchi). Abituriyentlarga ham o'qish oson emas (vositali to'ldiruvchi). Abituriyentlarni qabul qilishni boshladik (vositasiz to'ldiruvchi). Sizni bir abituriyent qiz kutmoqda (sifatlovchi aniqlovchi).

Gapning barcha bo'laklari bir xil mavqega ega bo'lmaydi. Mavqeyiga ko'ra gapning bo'laklari 2 xildir. 1) gapning bosh bo'laklari; 2) gapning ikkinchi darajali bo'laklari. Gapning bosh bo'laklari gapning asosini tashkil qilgan bo'laklardir. Ularga kesim va ega mansub.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari bosh bo'laklardan biriga ergashib ularni aniqlab, to'ldirib, izohlab keladigan bo'laklardir. To'ldiruvchi, aniqlovchi va hol ikkinchi darajali bo'laklar hisoblanadi. Ega kesimga nisbatan, aniqlovchi aniqlanmishga nisbatan aniqlanadi.

MUHOKAMA QISMI:

Gap bo'laklari va ularning turlari. Ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol.

EGA kesim bilan bog'lanib, kim? nima? qayer? singari so'roqlarga javob bo'luvchi, gap kesimining qo'shimchalaridan anglashib turgan shaxs-son ma'nosini aniqlashtiruvchi bo'lak egadir. Gapning kim yoki nima haqida ekanini anglatgan gapning bosh bo'lagi ham ega sanaladi.

Ega kesimga egashib, kesimda ifodalangan belgi harakat-holatning bajaruvchisini ko'rsatadi. Ega kesimdan keyingi bo'lak sanaladi.

Eganing ifodalanishi:

1. Ot bilan: Karim dars tayyorladi.
2. Olmosh bilan: Biz muzeyga bordik.
3. Sifatdosh bilan: O'qigan o'qdan o'zar.
4. Sifat bilan: Yaxshilar ko'paysin yomonlar qolmasin.
5. Ravish bilan: Ko'pi ketdi, ozi qoldi.
6. Son bilan: Ikkisi yaxshi o'qiydi.
7. Taqlid so'z bilan: Uzoqdan nimaningdir shitir-shitiri eshitildi.
8. Undov so'z bilan: Uning dod-voyi yetti mahallaga yetdi.
9. Modal so'z bilan: Bor so'zlaydi, yo'q o'ylaydi.
10. Harakat nomi bilan: O'qimoq koni foyda.
11. Ibora bilan: (ibora gap egasi bo'lishi uchun uning tarkibidagi so'nggi so'z harakat nomi shaklida yoki sifatdoshning -gan qo'shimchalari yoki egalik shakli bilan qo'llangan bo'lishi lozim). Qavog'idan qor yog'ish yaxshi odat emas.
12. Kengaygan birikma bilan: Otlarning otxonaga olib o'tilmagani Zayniddinni taajjublantirdi.
13. Ba'zan chiqish kelishigidagi so'z bilan: Menda bu kabi ko'ylakdan bor.

KESIM Bosh bo‘lakalar orasida kesim gapni yuzaga keltiruvchi gap markazi bo‘lib u 1)tasdiq-inkor 2)zamon 3)mayl (modal) 4)shaxs -son ma’nolarini bildiradi. Gapda kesimgina boshqa bo‘laklarga nisbatlanmagan holda aniqlanadi, chunki uning kesim ekanini kesimlik shakllari ko‘rsatib turadi. Shuning uchun uni gap tarkibidan topish qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Kesim qaysi turkumdagi so‘zlar bilan ifodalanishiga ko‘ra 2 xil bo‘ladi: 1. Fe‘l kesim

2. Ot kesim

Fe‘l kesim nima qilmoq? nima bo‘lmoq? so‘roqlariga javob bo‘ladi va o‘zining quyidagi vazifaviy shakllari bilan ifodalanadi:

1. Sof fe‘l bilan: Salima maktabdan keldi.

2. Sifatdosh bilan: Bola o‘qigan.

3. Ravishdosh bilan: Uy egasi daturxonni mehmon oldiga yozguncha Nafosat ham barkashni oib keldi. -guncha qo‘shimchasini olgan ravishdoshgina kesim bo‘lib kelishi mumkin.

Ot kesim bu o‘rinda ot so‘zi keng ma’noda qo‘llanib otdan boshqa ba’zi mustaqil so‘zlar ham gapda kesim bo‘lib kelganda shu nom bilan ataladi. Fe‘ldan boshqa so‘z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, ravish, taqlid so‘z) bilan, shuningdek, fe‘lning harakat nomi shakli bilan ifodalangan kesim ot kesim.

TO‘LDIRUVCHI gapning fe‘l bilan ifodalangan biror bo‘lagiga boshqaruv yo‘li bilan bog‘langan kimni? nimani? qayerni? kimga? nimaga? kimda? nimada? kimdan? nimadan? nima uchun? nima uchun? kim haqida? nima haqida? kim bilan? nima bilan? kabi so‘roqlariga javob bo‘luvchi ikkinchi darajali bo‘lakka to‘ldiruvchi deyiladi.

To‘ldiruvchi kesimdan anglashilgan harakat-holat, belgi-xususiyat bilan bog‘langan predmetni bildirgani tufayli ot, olmosh va otlashgan so‘zlar bilan ifodalanadi. To‘ldiruvchi doimo gapning kesimi bilan bog‘lanadi. Agar u bog‘langan so‘z kesim bo‘lib shakllanmagan bo‘lsa, ana shu so‘z bilan birgalikda kesimga nisbatan bitta gap bo‘lagi vazifasida keladi.

Shunday qilib, to‘ldiruvchilar kesimga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lanish bog‘lanmasligiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

1) Mustaqil to‘ldiruvchilar, 2) Nomustaqil to‘ldiruvchilar.

To‘g‘ridan to‘g‘ri kesimga bog‘lanib keluvchi to‘ldiruvchilar mustaqil to‘ldiruvchilar sanaladi. Kesim vazifasida kelmagan fe‘lga tobe bog‘lanib kelgan to‘ldiruvchilar nomustaqil to‘ldiruvchilar deyiladi. To‘ldiruvchi hokim bo‘lakka kelishik qo‘shimchalari yoki ko‘makchilar yordamida bog‘lanadi. Tushum kelishigidagi to‘ldiruvchi doimo fe‘l orqali ifodalangan kesimga bog‘lanadi.

To‘ldiruvchi 2 ga bo‘linadi.

1) Vositasiz to‘ldiruvchi

2) Vositali to‘ldiruvchi

1. Vositasiz to‘ldiruvchi tushum kelishigidagi so‘z bilan ifodalanadi. Belgili, belgisiz va qisqargan tushum kelishigi shakllari bilan ifodalangan to‘ldiruvchi vositasiz to‘ldiruvchi sanaladi: Farhod toshlarni xuddi sariyog‘ kessanday kesdi.

2. Vositali to‘ldiruvchi jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishiklari, shuningdek, ot so‘z turkumiga bilan, uchun, orqali, xususida, to‘g‘risida ko‘makchilarini qo‘shish orqali ifodalanadi:

Aziz bilan o‘qishga ketdik.

ANIQLOVCHI narsa-buyumning rang-tusi, mazasi, hajmi, kim yoki nimaga qarashlilikini bildirib, gapning ot bilan ifodalangan bo'lagini aniqlab kelgan ikkinchi darajali bo'lak aniqlovchi deyiladi. U qanday? qaysi? nechanchi? qancha? kimning? nimaning? qayerning? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Aniqlovchi aniqlagan (bog'langan) bo'lak aniqlanmish hisoblanadi. Aniqlovchi gapning barcha bo'laklarini aniqlashtirib kelishi mumkin.

Aniqlovchi ega, ot, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi va holga bog'lanadi: 1. Bahaybat samalyot (ega) yerga ohista qo'ndi.

2. Salimjon a'lochi o'quvchi (ot kesim)
3. Ilg'or ishchilarga (to'ldiruvchi) mukofotlar topshirildi.
4. Mehnat faxriylari bilan yangi bog'da (hol) uchrashdik.
5. Tadbirkor insonning (aniqlovchi) ishchilariga havasing keladi.

Aniqlovchilarning bir xil narsa-buyumning belgisi (rangi, miqdori, mazasi, hajmi) ni bidirsa, boshqa xili narsa-buyumning kimga yoki nimaga qarashlilikini bildiradi yoxud boshqa tomondan nomlaydi. Shunga ko'ra aniqlovchilar 3 ga bo'linadi:

1. Sifatlovchi aniqlovchi;
2. Qaratqich aniqlovchi;
3. Izohlovchi aniqlovchi.

1. Sifatlovchi aniqlovchi hokim bo'lakdan anglashilgan narsaning belgisini bildirib qanday? qanaqa? qaysi? qancha? nechta? So'roqlariga javob bo'ladi. Fe'l ot, sifat, ravish, taqlid so'z va olmoshar bilan ifodalangan va hokim so'zda egalik qo'shimchalari bo'lishini talab etmaydigan aniqlovchilar sifatlovchi aniqlovchilardir: Mustaqil O'zbekiston, qizil gul, mohir qo'llar, kuzgi bug'doy. Aniqlovchi aniqlagan (bog'langan) bo'lak aniqlanmish hisoblanadi.

Aniqlovchi narsa-buyumning rang-tusi, mazasi, hajmini bildiradi. Shu bilan birga aniqlovchi ega, ot kesim, to'ldiruvchi, hol va aniqlovchiga bog'lanib keladi.

2. Qaratqich aniqlovchi hokim bo'lakdan anglashilgan narsaning uchta shaxsdan biriga qarashli ekanini bildirib kimning? nimaning? qayerning? singari so'roqlariga javob bo'ladi.

Qaratqich aniqlovchi so'z birikmalarining asosiy belgisi tobe so'zning hokim so'zdan egalik qo'shimchalari bilan kelishini talab qilishdir: Maktabimizning to'garagi, hunar maktabi.

Qaratqich aniqlovchi doimo aniqlanmishga bog'lanadi. Ana shu belgisi bilan tushum kelishigini olgan to'ldiruvchidan farq qiladi. Tushum kelishigidagi to'ldiruvchi doimo fe'l orqali ifodalangan kesimga bog'lanadi: Olmaning bargi olmani yedim.

Qaratqich aniqlovchilar qaralmish bilan munosabatga kirishganda turlicha shakllanadi:

Qaratqich va qaqaralmish belgili keladi: Daraxtning bargi.

Qaratqich belgisiz, qaralmish belgili keladi: Direktor xonasi.

Qaratqich belgili, qaralmish belgisiz keladi: Bizning xona.

Qaratqich va qaralmish belgisiz keladi: O'rik danak, yong'oq mag'iz.

Qaratqich ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh va harakat nomi bilan ifodalanadi.

3. Izohlovchi aniqlovchi aniqlanmishning millati, jinsi, kasb-kori, nasl-nasabi, unvoni, laqabi, yoshi, qarindoshligi kabi qo'shimcha belgilarni tasvirlovchi aniqlovchilardir. Izohlovchi predmetni boshqa bir nom berish bilan aniqlab keladi. Masalan; akademik Quvondiqova Ruxshona, Sanjar soatsoz kabi.

Aniqlovchi soʻz birikmalarining izohlovchi-izohlanmish turida izohlovchi va izohlanmishning oʻrnini almashtirish maʼnoga ham, soʻz birikmasidagi soʻzlararo munosabatlarga ham taʼsir etmaydi. Ayol hamshira birikmasida ayol izohlovchi, hamshira izohlanmish boʻlsa, hamshira ayol birikmasida hamshira izohlovchi, ayol izohlanmish.

Izohlovchi aniqlovchining bir turi boʻlib, u shaxs yoki narsani boshqacha nom bilan aniqlaydi. Izohlovchilar koʻpincha ot soʻzlar bilan ifodalanadi: erkak oʻqituvchi, rus muhandis, shaxmatchi Temurbek, direktor Zarifa Allayorova, vazir Qobil Aslanov, professor T. Sattorov.

Izohlovchining maʼnolari:

1. Unvon, amal: Kapitan Islomov soʻzladi.
2. Mashgʻulot, kasb: Oshpaz Shukur, gulchi Nizom va duradgor Vahobjonlar yetib kelishdi.
3. Yosh, jins, qarindoshlik: Oʻsha kuni Latofat bilan Sobir amaki foydali nasihatlar qildilar.
4. Laqab: Jalil sovuq va Islom pismiqlarning aksiyalarini eshitdik.
5. Taxallus: Muso Toshmuhammad oʻgʻli Oybek yirik nasriy asarlar muallifidir.

HOL koʻproq kesimga bogʻlanib, undan anglashilgan ish-harkatning oʻrnini, paytini, holatini, bajarilish sababini, maqsadini, daraja-miqdori bildiradigan ikkinchi darajali boʻlak.

Hollar qanday? qanday qilib? qay tarzda? qayerda? qayerga? qayerdan? qachon? nega? nima uchun? qancha? kabi soʻroqlarning biriga javob boʻladi. Shunga koʻra, oʻrin holi, payt holi, ravish holi, daraja-miqdor holi, sabab holi va maqsad holi farqlanadi. Hol ravish kelishik shaklidagi va koʻmakchili otlar, olmoshlar, sifat, son, taqlid soʻz va feʼning xoslangan shakllari bilan ifodalanishi mumkin. Bir mustaqil soʻz bilan ifodalangan hol soda, kengaygan birikma bilan ifodalangan hol murakkab hol hisoblanadi.

Holning 6 ta turi mavjud. Ravish (tarz, vaziyat, holat) holi. Asosan holat ravishlari bilan (asta, sekin, tez, yayov, piyoda, chindan, qoʻqqisdan, jim, majburan, eskicha, mardlarcha, qatorasiga) ifodalanib qanday? qanday qilib? qay holda? qay ahvolda? qay tarzda? qay yoʻsinda? qay ravishda? Singari soʻroqlardan biriga javob boʻladi. Ravish holi kesimga bitishuv yoʻli bilan bogʻlanishi mumkin. Ravish holi quyidagicha ifodalanadi:

- 1) Holat ravishi bilan: Siz uning ortidan sekin poylab borasiz.
- 2) Ravishdosh bilan: U shoshib gapirardi.
- 3) Sifat bilan: Bolalarim yaxshi yarashibdi.
- 4) Koʻmakchili otlar bilan: Tolib eʼlonni diqqat bilan oʻqidi.
- 5) Taqlid soʻzlar bilan: Kumushning koʻzidagi yosh duv-duv toʻkildi.
- 6) Olmosh bilan: Notiq shunday gapirdiki, yigʻilganlarning hammasi qoyil qolishdi.

Oʻrin holi. Qayerga? qayerdan? qayerda? soʻroqlaridan biriga javob boʻlib, quyidagicha ifodalanadi:

- 1) Oʻrin ravishi bilan: Askarlar olgʻa intildilar.
- 2) Ot bilan: Samarqandda xalqaro anjuman tashkil etdi.
- 3) Olmosh+ot va makon-zamon (joʻnalish, oʻrin-payt va chiqish) kelishiklari bilan: U qayerga boradi?

Oʻrin holi oʻzi ergashgan soʻzga boshqaruv yoʻli bilan bogʻlanadi.

Payt holi. Qachon? qachongacha? qachondan beri? qay vaqt? kabi so'roqlardan biriga javob bo'lib quyidagicha ifodalanadi:

1) Payt ravishi bilan: Avval, so'ng, keyin, oldin so'zlari alohida so'roqqa javob bo'lib, asosan, yakka holda, gap boshida kelsa payt ravishiga tegishli bo'ladi. Agar ot, olmosh, sifatdash harakat nomidan keyin kelib, ular bilan birga yaxlit so'roqqa javob bo'lsa, eng muhimi alohida so'roqqa javob bo'la olmasa vazifadosh ko'makchi vazifasida kelgan hisoblanadi: Avval o'yla, keyin so'yla.

2) Makon-zamon kelishiklarini olgan payt otlari bilan: U tongda keldi.

3) Buyon, beri, so'ng, sayin, bo'ylab, davur, qadar kabi ko'makchili otlar bilan: Bundan buyon mening aytganim bo'ladi.

4) Son va sonli birikmalar bilan: U darsga soat sakkiz yarimda keladi.

5) Ravishdosh yoki ravishdoshli birikmalar bilan: Rahim choy ichib biroz dam olgach yana yer chopishga kirishib ketdi.

6) Harakat nomi bilan: Shaxbozni ketishida ko'rdim.

7) Sifatdash bilan: Qochayotganida tutib oldim.

Payt holi o'zi ergashgan so'zga boshqaruv yo'li bilan bog'lanadi.

Miqdor-daraja holi. Qancha? nechta? necha marta? qay darajada? so'roqlaridan biriga javob bo'lib, quyidagicha ifodalanadi:

1) Miqdor-daraja ravishi bilan: U juda ko'p o'qiydi.

2) Takror so'zlar bilan: Shu yil sholi hosili yaxshi bo'lgani uchun ham qop-qop oldik.

3) Ko'makchili ot bilan: Bobom guruchni qopi bilan oldi.

Miqdor-daraja holi o'zi ergashgan so'zga bitishuv yo'li bilan bog'lanadi.

Sabab holi. Nimaga? nima uchun? nima sababdan? nima sababli? qay vajdan? so'roqlariga javob bo'lib, quyidagicha ifodalanadi:

1) Sabab ravishi bilan: Uning onasi noilolikdan bordi.

2) Chiqish kelishigi shaklidagi otlar bilan: Daraxt shoxlari shamoldan egilardi.

1) Ko'makchili otlar bilan: O'rtadagi mehr-oqibat sababli ular uzoqda bo'lishiga qaramay har yili bir-birinikiga kelib turishardi.

Sabab holi o'zi tobelangan so'zga boshqaruv yo'li bilan birikadi.

Maqsad holi. Nima uchun? nima maqsadda? nima qigani? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:

1) Maqsad ravishi bilan: Men bu ishni atayin qildim.

2) Maqsad ravishdoshi bilan: Tog'ga do'lana tergani ketdi.

3) Ko'makchili otlar bilan: Biz vatan deb jangga kiramiz.

4) Jo'nalish kelishigi qo'shimchasini olgan ish otlari bilan: Akam kurortga dam olishga ketdi.

Maqsad holi o'zi bog'langan so'zga boshqaruv yo'li bilan birikadi.

XULOSA.

Gap bo'laklari gapning mazmunini to'liq ifodalashda ishtirok etadigan asosiy sintaktik birliklardir. Har bir bo'lak ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqllovchi va hol - o'ziga xos vazifaga ega bo'lib, ular birgalikda gapni grammatik va mantiqiy jihatdan mukammal shakllantiradi.

Bu bo‘laklarni to‘g‘ri aniqlash va ishlatish nafaqat tili ravon, fikri aniq gap tuzishga, balki yozma va og‘zaki nutqni boyitishga ham yordam beradi. Ayniqsa, ona tiini chuqur o‘rganishda gap bo‘laklarini puxta egallash til madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan, har bir o‘quvchi gap bo‘laklarini puxta o‘zlashtirishi, ularning vazifasi va o‘rnini anglab yetish lozim.

REFERENCES

1. Nargiza Erkaboyeva Yosh kuch, Toshkent 2021. 488-502-b.
2. 8-sinf ona tili darsligi, Toshkent - 2019, 80-88-b.
3. Anvar Baxranov, Bahodir Shamsiyev, Toshkent 2014. 272-281-b.
4. Arxiv.uz sayti.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild Madvaliyev A. tahriri ostida -T; O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. 624-b.
6. Rasulov R “Umumiy tilshunoslik” - Toshkent Fan - 2007. 255-b.